



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI EKOLOGIYA, ATROF-MUHITNI
MUHOFAZA QILISH VA IQLIM O'ZGARISHI VAZIRLIGI
HAY'AT YIG'ILISHI BAYONI**

2025-yil 21-fevral

№ 1

Toshkent sh

Hay'at raisi

A. Abduxakimov – O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vaziri

Ishtirok etdilar:

O. Qudratov – vazirning birinchi o'rinnbosari, J. Kazbekov – vazir o'rinnbosari, I. Qutbiddinov – vazir o'rinnbosari, U. Shadiyev – Turizm qo'mitasi raisi, E. Muhitdinov – O'rmon xo'jaligi agentligi direktori, **Sh. Xabibullayev** – Gidrometeorologiya xizmati agentligi direktori.

Taklif etilganlar:

K. Saytov – Vazirlar Mahkamasi mas'ul xodimi, B. Xolxo'jayev – Vazirlar Mahkamasi mas'ul xodimi

Qatnashganlar:

Vazirlik markaziy apparatining tarkibiy bo'linmalari va tizim tashkilotlari rahbarlari, Qoraqalpog'iston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vaziri, viloyatlar va Toshkent shahar ekologiya boshqarmalari boshliqlari (*ro'yxat bo'yicha*)

I. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston — 2030" strategiyasini "Atrof-muhitni asrash va "yashil iqtisodiyot" yilida amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida" 2025-yil 30-yanvardagi PF-16-son Farmoni ijrosini tashkil qilish to'g'risida

(Abduxakimov, Qudratov, Kazbekov, Qutbiddinov, Shadiyev, Muhitdinov, Xabibullayev, Abduxakimov)

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston — 2030" strategiyasini "Atrof-muhitni asrash va "yashil iqtisodiyot" yilida amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida" 2025-yil 30-yanvardagi PF-16-son Farmoni va u bilan Davlat dasturi (keyingi o'rnlarda – Farmon va Davlat dasturi) tasdiqlandi.

"O'zbekiston — 2030" strategiyasida va Oliy Majlis palatalarining majlislarida belgilangan vazifalarning ijrosini og'ishmay tashkil etish, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Iqlim o'zgarishi to'g'risida hadli konvensiyasining Kioto protokoli va Parij bitimi doirasida mamlakatning global hamjamiyat oldida olgan majburiyatlarini bajarishda tarmoq va sohalarning uyg'un "yashil transformatsiya"sin'i amalga

Gidrometeorologiya xizmati agentligi

oshirish, ularning raqobatbardoshligi va resurs tejamkorligini ta'minlash, iqlim o'zgarishi oqibatlarini yumshatish va unga moslashish hamda aholining yashash sifatini yaxshilash va iqtisodiy o'sishning yangi "yashil rivojlanish" modeliga o'tish maqsad qilingan.

Farmon bilan "Atrof-muhitni asrash va "yashil iqtisodiyot" yilida mamlakat rivojlanishining ustuvor yondashuvlari etib quyidagilar belgilandi:

mahallalarning ekologik qiyofasini yaxshilash, ko'chalarda yashillik darajasini oshirish, ekologik jihatdan qulay va farovon yashash muhitini shakllantirish;

aholining salomatligini yaxshilash, ekologik turmush tarzini shakllantirish va inson salohiyatini ro'yobga chiqarish uchun shart-sharoitlarni yaratish;

tabiiy resursslarni tejash va ulardan oqilona foydalanish, ekologik barqarorlikni ta'minlash;

o'simlik va hayvonot dunyosini asrash, ko'paytirish va keyingi avlodga yetkazish hamda biologik xilma-xillikni saqlash;

"yashil iqtisodiyot" tamoyillarini keng joriy qilish, iqtisodiyotni iqlim o'zgarishiga moslashtirishga qaratilgan loyihalarni barqaror moliyalashtirish;

respublika energobalansida qayta tiklanuvchi energiya ulushini oshirish, shu jumladan, davlat-xususiy sheriklik asosida yirik "yashil energiya" stansiyalarini barpo etish, hududlarda kichik va mikro gidroelektr stansiyalari tarmog'ini kengaytirish, aholi xonardonlarida quyosh panellarini o'rnatishni rag'batlantirish;

iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohada zamonaviy energotejamkor texnologiyalarni keng qo'llash orqali iqtisodiyotda "uglerod izi"ni kamaytirish;

ekologik barqarorlikka yo'naltirilgan hududlar va tarmoqlararo muvofiqlashtiruvni ta'minlash.

Davlat dasturi 5 ta ustuvor yo'naliш bo'yicha 100 ta maqsaddan iborat. Davlat dasturida Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligiga jami 295 ta topshiriq (shundan 225 tasi asosiy ijrochi sifatida), xususan 42 ta normativ-huquqiy hujjat loyihasini ishlab chiqish belgilangan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston — 2030" strategiyasini "Atrof-muhitni asrash va "yashil iqtisodiyot" yilida amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida" 2025-yil 30-yanvardagi PF-16-sod Farmoni ijrosini Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligida ta'minlash maqsadida Hay'at yig'ilishi **qaror qiladi:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston — 2030" strategiyasini "Atrof-muhitni asrash va "yashil iqtisodiyot" yilida amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida" 2025-yil 30-yanvardagi PF-16-sod Farmoni ijro uchun qabul qilinsin.

2. Quyidagilar:

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston – 2030" strategiyasini Atrof-muhitni asrash va "yashil iqtisodiyot" yilida amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida" 2025-yil 30-yanvardagi PF-16-sod Farmoni ijrosini Ekologiya,

atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligida ta’minlash yuzasidan Yo‘l xaritasi **1-ilovaga** muvofiq;

“O‘zbekiston – 2030” strategiyasining yo‘nalishlar bo‘yicha 2025-yilga mo‘ljallangan amaliy tadbirlar rejasi ijrosini Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligida ta’minlash yuzasidan Yo‘l xaritasi **2-ilovaga** muvofiq;

“O‘zbekiston – 2030” strategiyasining yo‘nalishlar bo‘yicha 2025-yilda ishlab chiqiladigan normativ-huquqiy hujjatlar ijrosini Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligida ta’minlash yuzasidan Yo‘l xaritasi **3-ilovaga** muvofiq;

“O‘zbekiston – 2030” strategiyasining 2025-yilga mo‘ljallangan maqsadli ko‘rsatkichlar ijrosini Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligida ta’minlash yuzasidan Yo‘l xaritasi **4-ilovaga** muvofiq;

Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi tomonidan 2025-yilda atrof-muhitni asrash bo‘yicha xalqaro hamkorlik yo‘nalishida chora-tadbirlarni amalga oshirish bo‘yicha Yo‘l xaritasi **5-ilovaga** muvofiq;

O‘zbekiston Respublikasida “Yashil turizm” dasturini amalga oshirish yuzasidan Yo‘l xaritasi **6-ilovaga** muvofiq;

Davlat dasturi ijrosini barvaqt, sifatli, to‘laqonli va samarali tashkil etish va amalga oshirish bo‘yicha ishchi guruh tarkibi **7-ilovaga** muvofiq;

Davlat dasturi bilan Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligiga belgilangan topshiriqlar yig‘ma-jadvali **8-ilovaga** tasdiqlansin.

3. Belgilab qo‘ylsinki:

Davlat dasturini so‘zsiz, sifatli va to‘liq amalga oshirish vazirlik tizimidagi barcha darajadagi rahbar va xodimlarning **birinchi navbatdagi ustuvor vazifasi** hisoblanadi.

vazir o‘rinbosarlari, vazirlik markaziy apparati barcha tarkibiy va hududiy bo‘linmalari hamda tizim tashkilotlari rahbarlari Davlat dasturida har chorak kesimida tegishli yo‘nalish va hudud bo‘yicha belgilangan maqsadlarga erishish, nazarda tutilgan chora-tadbirlarni samarali amalga oshirish va zarur normativ-huquqiy hujjat loyihamarini o‘z vaqtida va puxta ishlab uchun **shaxsan javobgar**.

4. Vazirning birinchi o‘rinbosari O.Qudratov, vazir o‘rinbosarlari I.Qutbiddinov, J.Kazbekov har oy yakuni bo‘yicha Farmon va Davlat dasturi, ularning maqsad va vazifalarini o‘z vazqtida hamda samarali bajarilishini muvofiqlashtirib, tanqidiy muhokamalarni o‘tkazib, natijalari bo‘yicha topshiriqlarni o‘z vaqtida va to‘liq bajarmagan mas’ul rahbarlarga nisbatan choralar ko‘rish yuzasidan takliflar kiritib borsin.

5. Davlat dasturi ijrosini muvofiqlashtirish uchun mas’ul etib vazir o‘ribosari I.Qutbiddinov belgilansin.

6. Davlat dasturi topshiriqlari ijrosi uchun mas’ul vazirlik tarkibiy bo‘linmalari, tizim tashkilotlari va hududiy bo‘linma rahbarlari

uch kun muddatda topshiriqlar ijorosini ta'minlash bo'yicha shaxsiy ish rejalarini tasdiqlash uchun kirlitsin;

topshiriqlar ijro etilishi holatini **har dushanba kuni** muhokama qilib borsin.

7. Vazirlikning barcha tarkibiy bo'linmalari, tizim tashkilotlari va hududiy bo'linmalari Davlat dasturi ijrosi yuzasidan amalga oshirilgan ishlar haqidagi ma'lumotlarni, **har oyning 25-sanasiga qadar** Strategik rejalashtirish, metodologiya va tarkibiy bo'linmalar faoliyatini muvofiqlashtirish yig'ma axborot-tahlil boshqarmasiga taqdim etib borishni ta'minlasin.

8. Strategik rejalashtirish, metodologiya va tarkibiy bo'linmalar faoliyatini muvofiqlashtirish yig'ma axborot-tahlil boshqarmasi (Qurbanov) Farmon ijrosi yuzasidan amalga oshirilgan ishlar haqidagi ma'lumotlarni **har oyning yakuniga qadar** Vazirlar Mahkamasi, Strategik islohotlar agentligi, Adliya vazirligi, Hisob palatasi, "Taraqqiyot strategiyasi" markazi hamda "Yuksalish" umummilliy harakatiga kiritib borilishini ta'minlasin.

9. Ushbu Hay'at yig'ilishi qarorining ijrosini nazorat qilish vazir o'rindbosarlari O. Qudratov, J. Kazbekov va I. Qutbiddinov zimmasiga yuklatilsin.

II. Vazirlar Mahkamasi Rayosatining 2025-yil 28-yanvardagi 16-son majlis bayonida ko'rsatib o'tilgan kamchiliklar, ularni bartaraf etish hamda kelgusida belgilangan vazifalar to'g'risida.

2024-yil davomida vazirlik markaziy apparatining departament, boshqarma, bo'lim hamda tizim tashkilotlarida jismoniy shaxslarni va yuridik shaxslarning vakillarini qabul qilish, murojaatlarini ko'rib chiqish bo'yicha muayyan ishlar amalga oshirildi. Murojaatlarni ko'rib chiqish yuzasidan nazorat ishlarini kuchaytirish hamda qonun buzilishi holatlarining oldini olish bo'yicha tegishli chora-tadbirlar belgilandi.

2024-yil davomida jismoniy va yuridik shaxslardan jami 22 687 ta, shundan bevosita vazirlikka – 8 003 ta (o'tgan yilning shu davriga nisbatan 13,9 foizga ko'paygan), virtual qabulxona orqali 14 684 ta (o'tgan yilning shu davriga nisbatan 65,9 foizga ko'paygan) murojaat kelib tushgan.

Bevosita vazirlikka kelib tushgan 8 003 ta murojaatdan, elektron murojaatlar - 787 tani (9,8 foiz), yozma murojaatlar – 576 tani (7,2 foiz), og'zaki murojaatlar – 6 640 tani (83,0 foiz) tashkil etgan.

Shuningdek, hisobot davrida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Xalq qabulxonalari va Virtual qabulxonasi orqali jami 14 684 ta murojaat kelib tushgan bo'lib, shundan 11 787 tasi (80,3 foiz) qanoatlantirilgan, 2 333 tasiga (15,8 foiz) tushuntirish berilgan, 11 tasi (0,1 foiz) rad etilgan, 40 tasi (0,3 foiz) ko'rilmasdan qoldirilgan, 513 tasi (3,5 foiz) o'rganish jarayonida bo'lган.

Tahlillar joylarda atrof-muhitni muhofaza qilishni ta'minlash, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish masalalarida mavjud va yuzaga kelayotgan muammolar tizim tashkilotlari tomonidan o'z vaqtida tahlil etilmaganligi hamda

zaruriy choralar ko‘rilmaganligi sababli jismoniy va yuridik shaxslardan kelib tushgan murojaatlar sonining ko‘payganligini ko‘rsatmoqda.

Xususan, eng ko‘p murojaatlar korxona va tashkilotlarning atrof-muhitga yetkazayotgan zararlariga oid 2 246 ta (jami murojaatlarning 28,1 foizini tashkil etgan, Respublika bo‘yicha 2023-yilga nisbatan 43,7 foizga oshgan) murojaat kelib tushgan.

Mazkur ko‘rsatkich, masalan Farg‘ona viloyatida 2,1 marta, Namangan viloyatida 1,1 marta, Toshkent viloyatida 84 foizga, Qashqadaryo viloyatida 64 foizga, Toshkent shahrida 39,7 foizga oshgan.

O‘simlik dunyosiga yetkazilayotgan zararlar to‘g‘risida (daraxt kesilishi, o‘simliklarga yetkazilayotgan zararlar) 1 761 ta (jami murojaatlarning 22,0 foizini tashkil etadi, Respublika bo‘yicha 2023-yilga nisbatan 35,9 foizga oshgan) murojaat kelib tushgan.

Mazkur ko‘rsatkich, masalan Farg‘ona viloyatida 84,8 foizga, Toshkent viloyatida 83,6 foizga, Surxondaryo viloyatida 56,2 foizga, Qashqadaryo viloyatida 52,3 foizga, Toshkent shahrida 38,6 foizga, Samarqand viloyatida 23,1 foizga oshgan.

Yer va suv resurslaridan oqilona foydalanishga oid 710 ta (jami murojaatlarning 8,9 foizini tashkil etadi, Respublika bo‘yicha 2023-yilga nisbatan 31,0 foizga oshgan) murojaat kelib tushgan.

Mazkur ko‘rsatkich, masalan, Samarqand viloyatida 64,6 foizga, Toshkent viloyatida 50,7 foizga, Qashqadaryo viloyatida 41 foizga oshgan.

Hisobot davrida jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini ko‘rib chiqishda jami 312 ta holatda Qonunda belgilangan talablarining buzilishiga yo‘l qo‘yilgan.

Eng ko‘p muddat buzilish holatlari Ekologik nazorat inspeksiyasiga (24 ta), Inson resurslarini boshqarish bo‘limiga (12 ta), Bioxilmaxillik siyosatini yuritish bo‘limiga (11 ta), Davlat-xususiy sheriklik va maishiy chiqindilar boshqaruvini takomillashtirish bo‘limiga (9 ta), Yuridik ta’minlash va tartibga solish ta’sirini baholash boshqarmasiga (7 ta), Chiqindilarni boshqarish va sirkulyar iqtisodiyotni rivojlantirish agentligiga (27 ta), Ekoturizm va ovchilikni rivojlantirish departamenti davlat muassasasiga (12 ta), Toshkent viloyati boshqarmasiga (115 ta), Farg‘ona viloyati boshqarmasiga (35 ta), Qashqadaryo viloyati boshqarmasiga (20 ta), Surxondaryo viloyati boshqarmasiga (17 ta), Namangan viloyati boshqarmasiga (11 ta), Samarqand viloyati boshqarmasiga (6 ta), Toshkent shahar boshqarmasiga (6 ta) to‘g‘ri kelmoqda.

Murojaatlarni ko‘rib chiqishda qonunchilikda belgilangan muddatlarga rioya qilinmaganligi, fuqarolarga murojaati yuzasidan batafsil, asoslantirilgan tushuntirishlar berilmaganligi natijasida 2024-yil davomida takroriy murojaatlar 393 tani tashkil etgan.

Takroriy murojaatlar asosan Ekologik nazorat inspeksiyasiga (3 ta), Yuridik ta'minlash va tartibga solish ta'sirini baholash boshqarmasiga (3 ta), Chiqindilarni boshqarish va sirkulyar iqtisodiyotni rivojlantirish agentligiga (180 ta), Qashqadaryo viloyati boshqarmasiga (35 ta), Samarqand viloyati boshqarmasiga (34 ta), Navoiy viloyati boshqarmasiga (34 ta), Namangan viloyati boshqarmasiga (32 ta), Surxondaryo viloyati boshqarmasiga (29 ta), Toshkent shahar boshqarmasiga (27 ta), Toshkent viloyati boshqarmasiga (16 ta) kelib tushgan.

Murojaatlar bilan ishslashda yo'l qo'yilgan kamchiliklarni bartaraf etish, kelgusida takrorlanishini oldini olish maqsadida murojaatlarni ko'rib chiqishda muddat buzilishiga yo'l qo'ygan bir qator mas'ullarga nisbatan keskin choralar ko'rilgan.

Xususan, 21 nafar xodimga nisbatan "hayfsan" intizomi jazo chorasi qo'llanilgan.

EDO.IJRO.UZ ijro intizomi idoralararo elektron tizimi orqali yuborilgan murojaatlarni ko'rib chiqish natijalari 258 ta holatda tizimga kech biriktirilib, rahbariyat tomonidan belgilangan muddatlarga rioya etilmagan. Natijada, 258 ta murojaat tizimda muddati kech bajarilgan murojaatlar sifatida tasnif etilgan.

Shuningdek, murojaatlarga javob xati yozishda ko'rsatilgan har bir masala bo'yicha vajlarni rad etuvchi yoki tasdiqlovchi aniq asoslarni ko'rsatmaslik, javob xatini ro'yxatga olmaslik holatlari mavjud.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, vazirlik apparatining departament, boshqarma va tizim tashkilotlarida jismoniy va yuridik shaxslarni qabul qilish, murojaatlarni ko'rib chiqishning natijadorligini yanada oshirish maqsadida Hay'at yig'ilishi **qaror qiladi**:

1. Vazirlar Mahkamasi Rayosatining 2025-yil 28-yanvardagi 16-sod majlis bayoni ma'lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Nazorat, ijro intizomi va murojaatlar bilan ishslash bo'limi boshlig'i F. Xusainovning axboroti ma'lumot uchun qabul qilinsin.

3. Quyidagilar:

qayd etilgan kamchiliklarni bartaraf etish va kelgusida shu kabi salbiy holatlar takrorlanishining oldini olish maqsadida, murojaatlar bilan ishslashda natijadorlikni oshirish bo'yicha chora-tadbirlar rejasи **9- ilovaga** muvofiq;

Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi rahbariyati tomonidan jismoniy shaxslarni va yuridik shaxslarning vakillarini joylarda sayyor qabul qilish bo'yicha yillik jadval **10- ilovaga** muvofiq tasdiqlansin.

4. Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini ko'rib chiqish samaradorligini oshirish maqsadida 21 nafar qonun buzilishiga yo'l qo'ygan xodimlarga nisbatan intizomiy jazo choralari qo'llanilgani ma'lumot uchun qabul qilinsin.

5. Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini ko'rib chiqishda qonunda belgilangan muddatlarning buzilishiga yo'l qo'ygan Ekologik nazorat inspeksiyasi,

Inson resurslarini boshqarish bo‘limi, Bioxilmassilik siyosatini yuritish bo‘limi, Davlat-xususiy sherklik va maishiy chiqindilar boshqaruvini takomillashtirish bo‘limi, Yuridik ta’minalash va tartibga solish ta’sirini baholash boshqarmasi, Chiqindilarni boshqarish va sirkulyar iqtisodiyotni rivojlantirish agentligi, Ekoturizm va ovchilikni rivojlantirish departamenti davlat muassasasi, Toshkent viloyati ekologiya boshqarmasi, Farg‘ona viloyati ekologiya boshqarmasi, Qashqadaryo viloyati ekologiya boshqarmasi, Surxondaryo viloyati ekologiya boshqarmasi, Namangan viloyati ekologiya boshqarmasi, Samarqand viloyati ekologiya boshqarmasi, Toshkent shahar boshqarmasi mas’ullariga ko‘rsatib o‘tilsin.

6. Turizm qo‘mitasi (Shadiyev) shaxsiy va sayyor qabullarni talab darajasida tashkil etish yuzasidan manzilli chora-tadbir belgilasin.

7. Vazirlik apparatining departamenti, boshqarma boshliqlari va tizim tashkilotlari rahbarlari:

joylarda jismoniy va yuridik shaxslarning vakillari bilan tasdiqlangan jadval asosida sayyor qabullar o‘tkazish, muammolarni joyida hal etish choralarini ko‘rish;

jismoniy va yuridik shaxslar murojaatlarining, shuningdek takroriyalarining kelib tushishi sabablarini chuqur o‘rganib chiqish hamda kelgusida ularni bartaraf etish, murojaatlarni ko‘rib chiqish muddatlarining asossiz buzilishiga chek qo‘yish;

har bir murojaatini o‘z vaqtida, qonunchilik talablariga muvofiq ravishda ko‘rib chiqilishi yuzasidan yanada talabchanlikni kuchaytirish;

murojaatlar bilan ishslashda yo‘l qo‘yilgan kamchiliklarni bartaraf etish, aybdor mas’ul shaxslarga nisbatan keskin choralar ko‘rish va kelgusida shu kabi salbiy holatlar takrorlanishining oldini olish;

kengaytirilgan yig‘ilishlarda jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bo‘yicha ishlarning ahvolini muntazam, tanqidiy muhokama etib borish va monitoringlar o‘tkazish yuzasidan zaruriy chora-tadbir belgilasin.

8. Nazorat, ijro intizomi va murojaatlarni ko‘rib chiqish bo‘limi (Xusainov):

qayd etilgan va yo‘l qo‘yilgan kamchiliklarni hal etishda shaxsan mas’ul ekanligi belgilab qo‘yilsin hamda bu borada amalga oshirilayotgan ishlar yuzasidan tizimli nazorat o‘rnatib, kunlik so‘rov o‘tkazsin;

murojaatlarni aniq ijrochilarga, hududiy boshqarmalarga, tezkorlik bilan yetkazish bo‘yicha qat’iy nazoratni amalga oshirsin;

murojaatlarni ko‘rib chiqishda qonun buzilishiga yo‘l qo‘ygan rahbarlarga nisbatan intizomiy jazo choralarini ko‘rish to‘g‘risida tanqidiy tahliliy ma’lumotlarni kiritib borsin.

9. Vazirlikning tarkibiy bo‘linmalari rahbarlari vazirlikka kelgan jismoniy va yuridik shaxslarning vakillarini qabul qilish tegishli masalasidan kelib chiqib, tarkibiy bo‘linmalarning mas’ullari tomonidan amalga oshirilishi shart ekanligi belgilab qo‘yilsin.

10. Hududiy boshqarma boshliqlari va tizim tashkilotlari rahbarlari soha xodimlarining ish yuritish borasidagi bilim va malakalarini muntazam oshirib borish yuzasidan zaruriy choralar ko'rsin hamda murojaatlarga javob xati yozishda O'zbekiston Respublikasining "Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to'g'risida"gi Qonuni talablariga rioya etilishi ustidan qat'iy nazorat o'rnatsin.

11. Vazirning axborot siyosati masalalari bo'yicha maslahatchisi L.Rahmanbaeva murojaatlар bilan ishslashning yakunlari bo'yicha hisobotlarni vazirlikning veb-saytiga joylashtirsin.

12. Ushbu Hay'at yig'ilishi qarorining ijrosini uni nazorat qilish vazirning birinchi o'rnbosari O. Qudratov zimmasiga yuklatilsin.

III. Toshkent viloyati, Toshkent tumani, "Darxon" MFY, Chimkent yo'li ko'chasi hamda Markaziy Osiyo atrof-muhit va iqlim o'zgarishini o'rganish universiteti (Green University) hududiga tutash hududlarda joylashgan xonadonlar va bino-inshootlarni kelishuv asosida bozor narxlarida sotib olish va kelgusida ushbu hududda Universitet kampusini qurish to'g'risida

Kun tartibidagi masala yuzasidan vazirning birinchi o'rnbosari O. Qudratov, Markaziy Osiyo atrof-muhit va iqlim o'zgarishini o'rganish universiteti rektori v.v.b. J. Salixovning axboroti eshitildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 23-iyulda "O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzurida Iqlim kengashini tashkil etish to'g'risida"gi PF-106-son Farmoni bilan tasdiqlangan Iqlim o'zgarishi oqibatlarini yumshatish va unga moslashish bo'yicha milliy strategiyasini hamda ushbu yo'nalishda yagona davlat siyosatini shakllantirish va amalga oshirish bo'yicha "Yo'l xaritasi"ning 28-bandи ijrosini ta'minlash maqsadida, Markaziy Osiyo atrof-muhit va iqlim o'zgarishini o'rganish universiteti (Green University) hududiga tutash hududlarda joylashgan xonadonlar va bino-inshootlarni kelishuv asosida bozor narxlarida sotib olish belgilangan.

Markaziy Osiyo atrof-muhit va iqlim o'zgarishini o'rganish universiteti (Green University) rektori v.v.b. J. Salixov Universitetga tutash hududlarda joylashgan xonadonlar va bino-inshootlar egalari bilan muzokaralar o'tkazish bo'yicha ishchi guruhi tuzilganligini ma'lum qildi.

Markaziy Osiyo atrof-muhit va iqlim o'zgarishini o'rganish universitetiga tutash joylashgan xonadonlar va bino-inshootlar o'rnida kelgusida ushbu hududda Universitet kampusini qurish uchun tegishli xonadonlar va bino-inshootlar egalari bilan muzokaralar o'tkazish maqsadida Universitetga tutash hududda joylashgan Toshkent viloyati, Toshkent tumani, "Darxon" MFY, Chimkent yo'li ko'chasi 10-uy manzilida joylashgan xonadon egasi **Karabayeva Mavluda Umarovna** hamda Toshkent viloyati, Toshkent tumani, "Darxon" MFY, Chimkent yo'li ko'chasi

4-uy, 2-xonodon egasi **Berdin Andrey Vladimirovich** muzokara o'tkazish uchun taklif qilingan.

Markaziy Osiyo atrof-muhit va iqlim o'zgarishini o'rganish universitetining Moliya va rejalashtirish bo'limi menejeri Universitet va "Qibray Estimation Services" MChJ o'rtasida 2025-yil 18-fevral kuni 2024.10.09-02(E)-sonli hamda 2024.10.09-02(E)-sonli shartnomalarga asosan, xonodon egasi **Karabayeva Mavluda Umarovnaning roziliginini olgan holda** Toshkent viloyati, Toshkent tumani, "Darxon" MFY, Chimkent yo'li ko'chasi 10-uy manzilida joylashgan xonodon 2 213 431 000 (ikki milliard ikki yuz o'n uch million to'rt yuz o'ttiz bir ming) so'mga, xonodon egasi **Berdin Andrey Vladimirovichning roziliginini olgan holda** Toshkent viloyati, Toshkent tumani, "Darxon" MFY, Chimkent yo'li ko'chasi, 4/2-uy manzilida joylashgan xonodon 1 089 941 000 (bir milliard sakson to'qqiz million to'qqiz yuz qirq bir ming) so'mga baholanganligini hamda ushbu baholash hisobotlari "Kontinent imkon baho" MCHJ tomonidan baholash ekspertizasi o'tkazilib, ekspert xulosalari olinganligini ma'lum qildi.

Muzokaralardan so'ng, xonodon egasi Karabayeva Mavluda Umarovna va Berdin Andrey Vladimirovich yuqorida bayon qilingan baholash tashkiloti tomonidan xonadonining bozor bahosini baholash bo'yicha hisobotlarida ko'rsatilgan baholardan o'z xohishiga ko'ra voz kechishlarini, xonodon egasi Karabayeva Mavluda Umarovna **Toshkent viloyati, Toshkent tumani, "Darxon" MFY, Chimkent yo'li ko'chasi 10-uy manzilida joylashgan xonadonini** 2 096 000 000 (ikki milliard to'qson olti million) so'mga, xonodon egasi Berdin Andrey Vladimirovich **Toshkent viloyati, Toshkent tumani, "Darxon" MFY, Chimkent yo'li ko'chasi 4/2-uy manzilida joylashgan xonadonini** 982 500 000 (to'qqiz yuz sakson ikki million besh yuz ming) so'mga sotishga va amaldagi qonunchilikda belgilangan tartibda oldisotdi shartnomasi rasmiylashtirishga rozi ekanliklarini, mazkur mol-mulk garovda yoki taqiqda emasligini bildirib, o'zining rozilik arizasini taqdim etishganliklari ma'lum qilindi.

Yig'ilish qatnashchilari muzokaralar xolisona o'tganligini va Karabayeva Mavluda Umarovna hamda Berdin Andrey Vladimirovichga tegishli ushbu xonadonlarni o'rnatilgan tartibda sotib olish taklif qilindi.

Kun tartibidagi Toshkent viloyati, Toshkent tumani, "Darxon" MFY, Chimkent yo'li ko'chasi hamda Markaziy Osiyo atrof-muhit va iqlim o'zgarishini o'rganish universiteti (Green University) hududiga tutash hududlarda joylashgan xonadonlar va bino-inshootlarni kelishuv asosida bozor narxlarida sotib olish va kelgusida ushbu hududda Universitet kampusini qurish tadbiri muhokama qilinib, Hay'at yig'ilishi **qaror qiladi:**

1. Markaziy Osiyo atrof-muhit va iqlim o'zgarishini o'rganish universiteti (Green University) rektori v.v.b. J. Salixovning axboroti **ma'lumot uchun qabul qilinsin.**

2. **Karabayeva Mavluda Umarovna tegishli bo'lgan** Toshkent viloyati, Toshkent tumani, "Darxon" MFY, Chimkent yo'li ko'chasi 10-yni **2 096 000 000**

(ikki milliard to‘qson olti million) so‘mga, Berdin Andrey Vladimirovichning Toshkent viloyati, Toshkent tumani, “Darxon” MFY, Chimkent yo‘li ko‘chasi 4/2-uyni 982 500 000 (to‘qqiz yuz sakson ikki million besh yuz ming) so‘mga sotib olish ma’qullansin.

3. Markaziy Osiyo atrof-muhit va iqlim o‘zgarishini o‘rganish universiteti rektori v.v.b. J. Salixov ushbu xonadonlarni Universitetga sotib olish uchun zarur bo‘lgan pul mablag‘larini Vazirlikning Ekoligiya jamg‘armasidan Universitetning g‘azna hisob raqamiga moliyalashtirib berish yuzasidan tegishli hujjatlarni ilova qilgan holda Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligiga taklif kirlitsin.

4. Ushbu Hay’at yig‘ilishi qarorining ijrosini nazorat qilish vazirning birinchi o‘rnbosari O. Qudratov zimmasiga yuklatilsin.

Hay’at raisi



A. Abduxakimov